

NAVOIY ASARLARIDA HUKMDOR AYOLLAR TASVIRI

Xolmurodova Odinaxon Dilmurod qizi

FARDU Filologiya va tillarni o'qitish:

O'zbek tili 2390-guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy asarlarida hukmdor ayollar tasviri tahlil qilinadi. Xususan, “Tarixi mulki Ajam” asaridagi Humoy, Turonduxr va Ozarndo‘xt obrazlari misolida ayolning davlat boshqaruvidagi roli, adolat va mas’uliyat bilan qaror qabul qilishi, shuningdek, tarixiy sharoitdagi ijtimoiy qiyinchiliklar yoritiladi. Humoy onalik va hukmdorlik mas’uliyatini uyg‘unlashtirgan holda davlat taqdiriga ta’sir qilgan, Turonduxr adolatni xalq hayotida ustuvor qilgan, Ozarndo‘xt esa hukmronlikda qat’iyat va mustaqil qaror qabul qilishning ahamiyatini ko‘rsatgan. Maqola ayol obrazining jamiyat va davlat hayotidagi beqiyos kuchini namoyon etadi va tarixiy hamda zamonaviy nuqtai nazardan qadrlanishini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Ayol, hukmdor ayol, Alisher Navoiy, Humoy, Turonduxr, Ozarndo‘xt, adolat, tarixiy obraz, davlat boshqaruvi, Sharq adabiy tafakkuri.

Ayol — bu hayotning yuragi, jamiyatning tayanchi va kelajak avlodni tarbiyalaydigan buyuk kuchdir. Tarixga nazar tashlasak, ayol faqat oilaning posboni emas, balki davlat taqdirini belgilagan shaxs sifatida ham maydonga chiqqanini ko‘ramiz. Qadimgi Misrda Kleopatra, Xitoyda imperator ayollar siyosat sahnasida qat’iyat bilan faoliyat yuritgan. Garchi o‘rta asrlarda ayollarga nisbatan qarashlar ko‘pincha cheklangan bo‘lsa-da, tarix sahnasida jasorati va zakovati bilan o‘z nomini qoldirgan ayollar borligi inkor etib bo‘lmaydi.

Sharq adabiy tafakkurida hukmdor ayollar obrazi kam uchraydi. Ammo Alisher Navoiy ana shu sukutni buzib, ayolni faqatgina nozik xilqat emas, balki xalq dardi bilan yashovchi, adolatni mezon qilgan hukmdor sifatida tasvirlaydi. Shoirning “Tarixi mulki Ajam” asari bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. Unda hukmdor ayollar jamiyat hayotini o‘zgartirishga qodir kuch sifatida gavdalanadi.

Asarda uch nafar hukmdor ayol haqida so‘z yuritiladi va Navoiy ularning har birini ortiqcha tafsilotlarsiz, ammo teran mazmun bilan tasvirlaydi. Barahman podshohning qizi Humoy ana shunday ayollardan biridir. U shunchaki hukmdor emas, balki aql, iroda va matonat timsoliga aylangan ayol obrazidir.

Humoy Bahmandan so‘ng taxtga o‘tiradi va uzoq yillar davomida mamlakatni idora qiladi. U dono, tadbirkor va qat’iyatli hukmdor sifatida tarixda nom qoldirgan. Ammo uning hayoti faqat siyosiy qarorlar va g‘alabalardan iborat emas. Humoy qalbida hukmdorlik mas’uliyati bilan onalik tuyg‘usi o‘rtasida og‘ir ichki kurash kechadi.

Farzandli bo‘lgach, Humoy podshohlikdan voz kecha olmaydi. Davlat taqdiri, saltanat mustahkamligi uning uchun hamon ustuvor edi. Shu bois u o‘g‘lini yashirinchalik sandiqqa solib, daryoga tashlashga majbur bo‘ladi. Bu qaror shafqatsizdek tuyulishi mumkin, ammo unda ayol hukmdorning davr sharoitidagi majburiy tanlovi mujassam.

Taqdir esa o‘z hukmini o‘tkazadi. Chaqaloq oddiy gozur qo‘liga tushib, mehr va tarbiya bilan ulg‘ayadi. Dorob deb atalgan bu yigit ilmga, fazilatga, jasoratga intiladi. U o‘z nasl-nasabini bilmagan holda ham podshohlikka munosib fazilatlarini namoyon etadi. Bu holat aslzodalikning qon bilan birga kelishini, buyuklik yashirin holda ham kamol topishini anglatadi.

Dorobning jasorati jang maydonlarida namoyon bo'lib, uning shuhrati Humoygacha yetib boradi. Eng ta'sirli lahza esa onaning o'g'ilni tanishi bilan bog'liq. Humoy Dorobni ko'rishi bilanoq qalban larzaga keladi, ko'ngli g'ash tortadi, hatto ko'kragiga sut keladi. Bu — hukmdor emas, avvalo ona yuragining uyg'onishidir. Ayol qalbining eng chuqur, eng samimiy holati shu lahzada ochiladi.

Haqiqat ayon bo'lgach, Humoy buyuklikning eng yuksak cho'qqisiga ko'tariladi. U taxtni saqlab qolish uchun emas, adolat uchun qaror chiqaradi. O'g'lini tan olib, tojni uning boshiga qo'yadi va o'zi hokimiyatdan chekinadi. Bu qaror Humoyni oddiy hukmdordan buyuk tarixiy shaxs darajasiga ko'taradi.

Humoy obrazi — ayolning faqat his-tuyg'u bilan emas, aql va mas'uliyat bilan ish tutishini ko'rsatadi. U hokimiyatni sevgan, ammo adolatni undan ham ustun qo'ygan ayoldir. Uning timsolida biz ayolning jamiyat va davlat hayotidagi beqiyos kuchini ko'ramiz.

Humoy — tarixda qolgan ayol emas, balki bugungi ayollar uchun ham ibrat bo'la oladigan buyuk siymodir. Sosoniylar davriga kelib, Navoiy yana ikki jasoratli ayol obrazini yaratadi: Turondo'xt va Ozarmdo'xt. Turonduxtning siyosiy donoligi bilan xalq baxtli bo'ladi. U davlat ishlarida adolatni o'rnatdi, eski korrupsiyaga barham berdi, moliyaviy va ma'muriy ishlarni tartibga soldi. Parviz zamonida Rumdan olib kelingan buyumlarni xalq manfaati uchun taqsimladi va xalq huzur topdi. Turonduxt bir yil va to'rt oy podshohlik qilgach, salomatligi va qarobati tufayli taxtni keyingi vorisga topshirdi va dunyoni tark etdi.

She'r bilan xulosa:

Chu Turon sarir uzra topdi sukun,

Anga ham vafo qilmadi charxi dun.

Ul etti vafo, charx qildi sitam,

Anga yo‘qki yolg‘uz yana birga ham.

Turondo‘xt — adolatni hayot mezoni qilgan oqila hukmdor hisoblanadi. U qisqa muddat hukmronlik qilgan bo‘lsa-da, soliq tizimi va qonunchilikdagi kamchiliklarni bartaraf etib, xalq roziligini qozonadi. Navoiy uning timsolida hukmdorning kuchi zo‘ravonlikda emas, balki adolat va xalqparvarlikda ekanini ta’kidlaydi.

Ozarmdo‘xt Turondo‘xtning singlisi bo‘lib, saltanatga o‘tirgach, barcha ishlarni o‘z qarori va tadbiri bilan boshqardi. U podshohlik vaqtida hech kimni vazir qilmay, hokimiyatni markazlashtirdi. U o‘z nafsini hukmdorlikdan ustun qo‘ydi. U barcha ishlarni o‘z tadbiri bilan boshqardi, lekin shahvat va shaxsiy manfaati bilan Firuz Hurmuzni o‘ldirishga buyruq berdi. Bu voqea xalqqa ko‘rinib qoldi va norozilikka sabab bo‘ldi. Rostam esa o‘z armiyasini olib Madoyn‘ga yetib, adolatni tikladi. Shu tariqa Ozarmduxtning hukmronligi atigi olti oy davom etdi, lekin u o‘z adolatsizligi bilan mulk ishlariga zarar yetkazdi.

She‘r bilan xulosa:

Chu Ozarmdo‘xt o‘ldi masnad nishin,

Bas oshufta qildi yana mulk ishini.

Qatil o‘ldi ul dagi topmay darang,

Vale keltirib mulk holiga nang.

Ozarmdo‘xt qat‘iyat va or-nomus timsolidir. U davlat boshqaruvida mustaqil qarorlar qabul qiladi, qo‘shin va sarkardalarni doimo nazoratda ushlab, yurt osoyishtaligini himoya qiladi. Navoiy Ozarmdo‘xt obrazi orqali nafaqat tashqi go‘zalligi va husni, balki uning aqi-farosati, hukmdor ayolligi, davlatni odilona boshqarganligini ulug‘laydi. Ozarmdo‘xt millatning ehtiyoji

va manfaatlarini himoya qiladigan, ijtimoiy muhitni yarata oladigan dunyoqarashi shakllangan va ijobiy natijalarga erishishgan hukmdor ayol obrazi. Ozarndo‘xtning shaxsiy sha’ni va davlat sha’nini birdek asrashi, ayolga nisbatan past nazar bilan qaralgan davr uchun chinakam jasorat edi. Afsuski, uning fojeali taqdiri o’sha davr jamiyatidagi adolatsizlik va ayollarga bo‘lgan zulmni yaqqol namoyon etadi.

Navoiy asarlarida hukmdor ayollar tasviri — ayolning faqat hissiyot va noziklik timsoli emas, balki aql, mas’uliyat va adolat bilan ish tutadigan shaxs ekanini ko‘rsatadi. Humoy, Turonduxt va Ozarndo‘xt obrazlari orqali adolat, jasorat va dono qaror qabul qilishning qadriyatlari ochib beriladi. Bu obrazlar nafaqat tarixiy shaxs sifatida, balki bugungi ayollar uchun ham ibrat bo‘la oladigan namunadir. Navoiy ayolning jamiyat va davlat hayotidagi beqiyos rolini tasvirlab, uning kuchi va dono qobiliyatini yuksak qadrlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jahon adiblari adabiyoti haqida.-Toshkent:O‘zbekiston.2010.
2. Alisher Navoiy.Muakammal asarlar to‘plami.”Tarixi muluki ajam”.20jildlik,16-jild.O‘zResFA, “Fan”:Toshkent, 2000.
3. Ergashev Q. 2006. “Tarixi muluki ajam”da tarixiy haqiqat va afsonaviyromantik talqin”. O‘zbek tili va adabiyoti .-Toshkent.
4. Hayitmetov A. O‘zbek adabiyoti tarixi.-Toshkent: Fan,1977.
5. Saidakbarova M. “Tarixi muluki ajam”asining hozirgi o‘zbek adabiy tiliga tabdili.-Farg‘ona,2024.